

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

---

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SUYAROV NURBEK RUSTAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA “PAXTA ISHI” QATAG‘ONI  
SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI  
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

**07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi”**

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Suyarov Nurbek Rustamovich**

О‘zbekistonda “Paxta ishi” qatag‘oni siyosati va uning oqibatlari  
(Qashqadaryo viloyati misolida)..... 5

**Суяров Нурбек Рустамович**

Политика репрессий «Хлопкового дела» в Узбекистане и ее последствия  
(на примере Кашкадарьинской области)..... 25

**Suyarov Nurbek Rustamovich**

The policy of repression of the “Cotton case” in Uzbekistan and its consequences  
(on the example of the Kashkadarya region)..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

---

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SUYAROV NURBEK RUSTAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA “PAXTA ISHI” QATAG‘ONI  
SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI  
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

**07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi”**

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2020.1.PHD/Tar777 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**To‘rayeva Matluba Xoliqulovna**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Taqrizchilar:**

**Qobilov Eshbolta Atamurotovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Yunusova Xurshida Erkinovna**  
tarix fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05-raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: [kasu\\_info@edu.uz](mailto:kasu_info@edu.uz)). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi bilan).

**B.J. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash raisi, t.f.d.,  
professor

**N.N. Rajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.n.,  
dotsent

**Yu.A. Ergasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash qoshidagi

## **KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda, xalqaro maydonda turli xalqlarning tarixini har tomonlama tadqiq etish, tarixiy-madaniy jarayonlarga ilmiy tahlillar asosida haqqoniy baho berish, nafaqat mintaqaviy hududlarda, balki jahon tarixshunosligida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, siyosiy dipressiyalar va urushlarga boy bo'lgan XX asr tarixini va ushbu davrda sotsialistik tuzumda yashab kelayotgan turli xalqlarga nisbatan qo'llanilgan qatag'onlik siyosati hamda uning oqibatlarini har tomonlama o'rganib, baho berish jahon tarixshunosligida ham dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi ilmiy tashkilotlar tomonidan XX asrda yuz bergan siyosiy to'qnashuvlar, yirik davlatlarning kichik va zaif davlatlarga siyosiy, iqtisodiy hatto milliy bosim o'tkazishi jarayonlari, depressiya va qatag'onga uchragan xalqlarning tarixiy taqdiri va qismati haqida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda XX asrning 80-yillarida sobiq sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan qatag'onlik siyosati muhim ustuvor mavzu sifatida e'tirof etilib, bu bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash uchun bosib o'tilgan tarixiy taraqqiyot yo'lini chuqur tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, sovet hokimiyati tomonidan XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda jumladan, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan qatag'onlik siyosatini chuqur o'rganish uni tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr Qashqadaryo vohasi uchun o'ziga xos murakkab va og'ir kechganligini, yangi manbalar va sovet davrida yaratilgan asarlarni tanqidiy asosda o'rganish, tarixiy haqiqatni tiklash dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev aytganidek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"<sup>1</sup>. Shu boisdan ham XX asrning 80-yillarida sovet hokimiyati tomonidan Respublika miqyosida amalga oshirilgan qatag'onlik siyosatining mohiyati va oqibatlarini Qashqadaryo viloyatida misolida o'rganib, tahlil etish hamda tegishli xulosalar chiqarish ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5598-son "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз". – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 29.

mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"<sup>2</sup>gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi 936-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-iyundagi 357-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasidagi qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari hamda "Shahidlar xotirasi" jamoat fondini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarori" va soha faoliyatiga oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** XX asr 80-yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'on siyosatining kelib chiqishi va uning salbiy oqibatlariga doir mavjud adabiyotlarni uch guruhga ajratish mumkin. 1) Sovet hokimiyati davrida yaratilgan adabiyotlar; 2) Mustaqillik yillarida yaratilgan nashrlar; 3) Xorijiy mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruh adabiyotlari juda kamchilikni tashkil etadi. Mazkur davrga oid statistik to'plam materiallari va stenografik hisobotlarda<sup>3</sup> respublikada paxta yetishtirish hajmining mutassil oshib borganligi ko'rsatilgan. Ana shunday adabiyotlar guruhiga R.A. Ubaydullayeva, O. Yoqubov, F. Xotamov, Y. Dodobayev, M.X. Hamidov, A.X. Mamadaliyev, E.S.To'xtayev<sup>4</sup> asarlarini kiritish mumkin. Mazkur adabiyotlarda sovet mafkurasi ta'sirida kompartiya organlarining roli bo'rtirilgan holda ko'rsatilgan bo'lsa-da, ammo ular tarixiy ma'lumotlar salmog'i bilan muhim ahamiyatga egadir.

Y.Xo'jamberdiyev<sup>5</sup> asari badiiy-publitsistik maqolalardan iborat bo'lib, unda xalqimizning og'ir mehnat bilan kun kechirgan turmush tarzi, qishloq kishilarining hayotini o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealari asosida tasvirlagan. Mazkur davrda

<sup>2</sup><https://lex.uz/docs/5841063> – Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 2022-yil 28-yanvar, ПФ-60-сон.

<sup>3</sup> Народное хозяйство СССР в 1985 г. Стат. Ежегодник ЦСУ СССР. – М.: Финансы и статистика, 1986. – 655 с.; Совет Иттифоки КП XXVII съезди материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – 450 б.; Материалы Пленума Центрального Комитета КПСС, 27-28 января, 1987 г. – М.: Политиздат, 1987. – 94 с.; Первый съезд народных депутатов СССР. 25 мая – 9 июня 1989 г. Стенографический отчет. Т-3. – М., 1989. – 448 с.; XXVIII съезд Коммунистической партии Советского Союза, 2-13 июля, 1990 г. Стеногр. отчет. Т.1. – М.: Политиздат, 1991. – 639 с.

<sup>4</sup> Убайдуллаева Р. А. Хотин-қизларнинг социал-иқтисодий ривожланишга қўшаётган ҳиссаси. – Тошкент: Билим, 1987. – 23 б.; Ёқубов О., Хотамов Г. Кеча ва бугуннинг сабоқлари. – Тошкент: Мехнат, 1989. – 136 б.; Додобаев Ю.Т., Хамидов М.Х., Мамадалиев А.Х. Мировое хлопководство: проблемы и перспективы развития. – Ташкент: Фан, 1990. – 112 с.; Тухтаев Э.С. Социально-экономические проблемы повышения уровня жизни сельского населения Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1990. – 139 с.

<sup>5</sup> Хўжамбердиев Ё. Ўзбеклар иши. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 304 б.

“Qashqadaryo haqiqati” gazetasi sahifalarida viloyatda paxta yetishtirish bilan bog‘liq maqolalar chop etildi<sup>6</sup>. T. Shoqulov, N. Gladkov, V. Somov, O. Mo‘minov maqolalarini misol keltirish mumkin. Mazkur maqolalarda “Paxta ishi” qatag‘oni haqida fikr yuritilmagan bo‘lsada, o‘sha davrda paxta yetishtirish bilan bog‘liq holat haqida ma‘lumot olish imkonini beradi. 1988-yilda “Pravda” gazetasida G. Ovcharenko, B. Sokolov maqolalari e‘lon qilingan<sup>7</sup>. Mazkur maqolalarda respublikada rahbar lavozimida ishlab kelayotgan ba‘zi xodimlar faoliyatiga baho berilib, butun o‘zbek xalqini poraxo‘rlik, mafiyabozlikda ayblagan. 1989-yildan boshlab, SSSR Prokuraturasining T.X. Gdlyan boshchilik qilgan tergov guruhi faoliyati bilan bog‘liq tanqidiy maqolalar chop etila boshlandi<sup>8</sup> va ularning noqonuniy xatti-harakatlari tanqid ostiga olingan.

Xullas, ushbu asarlar “paxta ishi” qatag‘oni va O‘zbekistondagi paxta yakkahokimligi borasida barcha haqiqatlarning ochilishiga imkon bermasa-da, mavzu yuzasidan muhim manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh adabiyotlari qamrovi ancha keng bo‘lib, ularda XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan “Paxta ishi” qatag‘on siyosati hamda mazkur davrdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston Kompartiyasi MQ 1-kotibi I.A. Karimov KPSSning XVIII syezdidagi nutqida respublikada amalga oshirilgan “Paxta ishi” qatag‘oni va bu davrda yuz bergan ommaviy qonunbuzarliklarni tanqid qiladi<sup>9</sup>. Mazkur jarayon darslik va o‘quv qo‘llanmalarda<sup>10</sup> ham o‘z aksini topdi. Shuningdek, V. Ilyuxin, T. Qahramonov, A. Azizxo‘jayev, Sh. Ergashev, G. Rashidova, D. Komilov, L. Levitin, F. Razzoqov, Sh. Akbarov, S. Rizayev va boshqalarning asarlarida<sup>11</sup> mavzuga aloqador ba‘zi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

---

<sup>6</sup> Шоқулов Т. Ҳашарчилар далада, пахтакорлар панада // Қашқадарё ҳақиқати, 1985 йил, 24 октябрь; Шоқулов Т. Усмон Юсупов районида ялпи сафарбарлик сезилмаётир // Қашқадарё ҳақиқати, 1985 йил, 24 октябрь; Гладков Н., Сомов В. Пахта мавсуми ўқувчилар учун эмас, // Қашқадарё ҳақиқати, 1985 йил, 14 март; Мўминов О. “Пахта дер ўзбекнинг ёши қариси”. // Қашқадарё ҳақиқати, 1987 йил, 25 июнь; Жиноят иши ёпилади // Қишлоқ ҳақиқати, 1988 йил 20 октябрь; Далолат. Советская Россия газетасининг 120-сонидан Ё. Хўжамбердиев таржимаси. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989 йил 9 июнь; Ковалев А. Халқ ҳақиқатни билмоғи зарур. // Қишлоқ ҳақиқати, 1990 йил 30 январь ва бoшq.

<sup>7</sup> Георгий Овчаренко. «Кобры над золотом». (<https://ed-glezn.livejournal.com/900891.html>) («Правда» 23 января 1988 года); Соколов В. Сирли салтанат. // Правда, 1988 йил 24 январь.

<sup>8</sup> В Президиуме Верховного Совета СССР // Правда, 1989, 21 май; СССР Прокуратурасининг Т.Х. Гдлян бошчилик қилган тергов гуруҳи фаолияти билан боғлиқ бўлган материалларни текширувчи комиссиянинг ахбороти, // Совет Ўзбекистони. 1989 йил, 27 декабрь; Қаранг: Халқ ҳақиқатни билмоғи зарур. СССР Т. Гдлян бошлиқ тергов гуруҳи фаолияти билан боғлиқ материалларни текшириш юзасидан СССР Халқ депутатлари съезди комиссияси аъзолари “Қишлоқ ҳақиқати” мухбири саволларига жавоб беради // Тошкент ҳақиқати, 1990 йил 3 февраль ва бошq.

<sup>9</sup> XXVIII съезд Коммунистической партии Советского Союза, 2-13 июля, 1990 г. Стеногр. отчет. Т.1. – М.: Политиздат, 1991. – 310 с.

<sup>10</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 687 б; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар) К.2. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда). Масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2019. – 118 б.

<sup>11</sup> Илюхин В. Қабохат ёхуд... (“Ўзбеклар иши” деган уйдирма хусусида). – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 271 б.; Қаҳрамонов Т. Иблис исканжасида 1643 кун. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – 230 б.; Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 364 б.; Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003. – 144 б.; Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 200 б.; Рашидова Г, Комилов Д. Шароф Рашидов инсон-давр кўзгусида ва давр инсон тақдирида. – Тошкент, 2017. – 376 б.; Раззоқов Ф. Шароф Рашидов: ҳаёт ва мамот. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2020. – 520 б.; Акбаров Ш., Ризаев С. Шароф Рашидов портретига чизилар. – Тошкент: Шарқ, 2021. – 296 б.

Jumladan, V. Ilyuxin o‘z asarida O‘zbekistonda yuz bergan so‘nggi qatag‘on siyosati, T.X. Gdlyan, Ivanovlar tomonidan amalga oshirilgan tergov jarayonlari, “O‘zbeklar ishi” degan uydirmaning to‘qib chiqarilganligini aniq misollar asosida ko‘rsatib bergan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yaratilgan kollektiv monografiyalar<sup>12</sup> va tadqiqotlarda<sup>13</sup> mavzuga doir fikr-mulohazalar bayon etilgan. Q. Rajabov monografiyasida so‘ngi qatag‘on siyosati, uning oqibatlari, repressiya qilingan kishilarning reabilitatsiyasi qilinishi jarayonlari xususida fikr yuritilgan. T. Ochilov, P. Ravshanov, L. Bo‘rixon, D. Avliyoqulova, Sh. Akbarov<sup>14</sup> asarlarida Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan “Paxta ishi” qatag‘on siyosatining ba‘zi jihatlari haqida ma‘lumot berilgan. T. Ochilov kitobida 1981–1984-yillarda Yakkabog‘ tumanidagi paxta tozalash zavod direktori bo‘lib ishlagan Rustam Jo‘rayev haqida, P. Ravshanov kitoblarida 1986–1989-yillarda Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, “Paxta ishi” qatag‘on siyosatining ayrim jihatlari xususida, Luqmon Bo‘rixonning “Olov tutgan odam” nomli kitobida esa Islom Karimov Qashqadaryo viloyat partiya qo‘mitasining birinchi kotibi vazifasida ishlagan kezlardan boshlab O‘zSSR kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimiga tayinlangunga qadar bo‘lgan davr qalamga olingan. Asarda “Paxta ishi” deb atalgan tergov tufayli butun boshli mehnatkash xalqqa “o‘g‘ri”, “poraxo‘r” kabi tuhmatlar yog‘dirilishi vaziyatni yanada murakkablashtirganligi, o‘sha kezlarda viloyat ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham respublikada eng quyi o‘rinlarga tushib qolganligi hamda mavjud vaziyatda I. Karimovning tutgan o‘rni haqida, D. Avliyoqulova monografiyasida janubiy viloyatlarda amalga oshirilgan “Paxta ishi” qatag‘onining ayrim jihatlari ko‘rsatib berilgan.

XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xususan, K. Mahmudov, Y. Inoyatov, E. Rajabov, A. Erkayev, P. Qurbonov kabilarning kitob va esdaliklari nashr etildi<sup>15</sup> hamda ulardan ba‘zilarining yubiley marosimlari<sup>16</sup> o‘tkazildi. Ushbu manbalarda XX asrning 80-yillaridagi qatag‘on paytidagi ayrim jarayonlar haqida qimmatli faktlar keltirilgan.

XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, paxta yakkahokimligi, qatag‘on siyosati bir qator olimlarning tadqiqotlarida

---

<sup>12</sup>Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945-1983 йиллар). (Масъул муҳаррир К. Ражабов). – Тошкент. Фан, 2020. – 248 б.

<sup>13</sup>Ражабов К. Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917–1991 й). – Тошкент, 2022. – 399 б. ва бошқ.

<sup>14</sup>Очилов Т. Ҳақиқат эгилади, аммо синмайди. Яккабоғ, 1992. – 75 б; Раваҳанов П. Қашқадарё истиқлол арафасида. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 182; Ўша муаллиф. Бу юклик кўприги. Ислам Каримов Қашқадарёда (1986–1989). – Тошкент: 2021; Авлияқулова Д. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларидаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 20–80-йиллари). – Тошкент: Тафаккур, 2016. – 127 б.; Ш. Акбаров. Касби-корим адолат бўлди. – Тошкент: Наврўз. 2018. – 392 б. Л. Бўрихон. Олов тутган одам. – Тошкент: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 384 б. (<https://aniq.uz/uz/yangiliklar/islom-karimov-haqida-olov-tutgan-odam>)

<sup>15</sup> <https://islomkarimov.uz/uz/page/memory/razhabov-esonboj-qashqadaryo-viloyati-kasaba-uyushmasi-tashkilotlari-birlashmasi-kengashining-raisi>

<sup>16</sup><https://qashqadaryo.uz/oz/nview/atoksd1648624632,2><https://www.youtube.com/watch?v=WUaSxdeZcHE>  
3.[https://t.me/qashqadaryo\\_trk/29772](https://t.me/qashqadaryo_trk/29772)

ham o'z aksini topgan<sup>17</sup>. Chunonchi, X.E. Yunusovning tadqiqot ishida respublikada "Paxta ishi" qatag'on siyosatining amalga oshirilishi jarayonlari, D. Avliyoqulovning dissertatsiyasida Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida amalga oshirilgan "Paxta ishi" qatag'oni xususida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Mazkur masalaning ba'zi bir jihatlari ilmiy to'plamlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, "O'zbekistonda sovet davlatining qatag'on siyosati: kelib chiqishi sabablari va fojiali oqibatlarini"<sup>18</sup> nomli ilmiy to'plamda tadqiq etilayotgan mavzuga tegishli masalalar xususida maqolalar chop etilgan. Tadqiqot ishiga doir ma'lumotlar davriy matbuot materiallarida ham o'z aksini topgan<sup>19</sup>. Mazkur maqolalarda "Paxta ishi" qatag'oni, respublikada inson huquqlarining buzilishi holatlari, tergov va sud jarayonida yo'l qo'yilayotgan adolatsizliklar, T. Gdlyan va N. Ivanovlarning kirdikorlari bayon etilgan.

Mavzu tarixshunosligining uchinchi guruhiga xorij mualliflarining asarlari kiritilib, bu tadqiqotlarga Feofanov, Yuri, Barry, D. Donald, N. Nicklas, N. Norling, S. Abashin, R. Cucciolla<sup>20</sup> va boshqa mualliflarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Jumladan, Y. Feofanov va D. Barrilarning "Rossiyada siyosat va adolat: Stalindan keyingi davrning asosiy sinovlari" nomli kitobida T. Gdlyan va N. Ivanovlarning

---

<sup>17</sup> Юнусова Х.Э. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоий иқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фан. докт. дисс. ... – Тошкент, 2009. – 300 б.; Абдуллаев А. Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг оқибатлари (1917–1991 йй.). тарих.фан.докт. дисс. ... – Тошкент: 2010. – 309 б.; Қувватова Н.Қ. XX асрнинг 20–80-йилларида Ўзбекистон қишлоқларининг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти (Қашқадарё вилояти мисолида). Тарих фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 28 б.; Худойқулов Ў.К. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида енгил ва озиқ-овқат саноати ечим ва муаммолар (1970–1990 йй). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... авторефати – Тошкент, 2010. – Б. 95–98; Абуев Ҳ. Совет ҳокимиятининг қайта қуриш сиёсати ва унинг Ўзбекистонга таъсири (1985-1991 йй.). тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... – Тошкент, 2020. – 165 б.; Ходжамбердиев Х. "Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий жараёнлар тарихи" (1970–91 йй) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.... – Тошкент, 2020. – 177 б.; Пардаев Т. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1945–1991 йй). Тарих фанлари доктори дисс. Автореф. – Термиз, 2021. – 65 б.; Авлиёқуллова Д. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Жанубий вилоятлар мисолида. XX асрнинг 20–80-йиллари) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Қарши, 2022. – 54 б.

<sup>18</sup> Ҳасанов Б. Биринчи Президент И.А. Каримов мустамлакачилик даври раҳбарлигида қурбонлари хотирасининг абадийлаштирилиши // "Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиши сабаблари ва фожиали оқибатлари" Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2012. – Б. 9-19; Зияева Д. Шу тўпلامда. – Б. 19-22; Юнусова Х. Шу тўпلامда. – Б. 71-85 ва бoшқaлар.

<sup>19</sup> Аvezов М. Оқланганлар // Совет Ўзбекистони, 1991 йил 26 февраль; Илюхин В. Риёкорлар // Ўзбекистон овози, 1992 йил 15 февраль; Илюхин В. Риёкорлар // Ўзбекистон овози, 1992 йил 15 февраль, 18 февраль, 20 февраль, 25 февраль, 26 февраль, 27 февраль; Каримов И. Ҳар қандай муҳолиф билан баҳслашмоққа тайёрман // Халқ сўзи. 1993, 27 май; Ҳошимов Ў. Ўзбекистонга, ўзбек халқига қарши жиноят // "Шарк юлдузи". – Тошкент, 1993. – №9. – Б. 43-48; Жўрақулов О. Яқин ўтмиш даҳшатлари // Мулоқот. 2004. – №3. – Б. 23-25; Полвонзода А. "Пахта иши" қандай вужудга келган эди? // Водийнома, 2020 йил. – №4. – Б. 24-31; Полвонзода А. "Пахта иши" қандай вужудга келган эди? // Ҳуқуқ ва бурч. 2020 йил, №7. – Б. 7-27; "Ўзбек иши" қурбонлари // Водийнома. – №3. 2020 йил. – Б. 70-112; Ходжамбердиев Х. Ўзбекистонда "пахта иши" га доир янги маълумотлар (1981–1985 йй) // Ўтмишга назар. 2021. – №9. – Б. 100 ва бoшқa.

<sup>20</sup> Feofanov Yuri, Donald D. Barry. Politics and Justice in Russia: Major Trials of the Post-Stalin Era. Armonk. – New York: M.E. Sharpe, 1996. – 345 p.; Nicklas N. Party Problems and Factionalism in Uzbekistan: Evidence from the Communist Party Archives. Institute for 169 Security and Development Policy, V. Sweden, 2017. – P. 131. Norling N. Myth and reality: politics in soviet Uzbekistan. A Dissertation submitted to Johns Hopkins University in conformity with the requirements for the degree of Doctor of Philosophy Baltimore, 2014. – 353 p.; Abashin S. Nations and Post-Colonialism in Central Asia: Twenty Years Later // Development in Central Asia and the Caucasus: Migration, Democratisation and Inequality in the Post-Soviet Era / S. Hohmann, C. Mouradian, S. Serrano and J. Thorez (eds). I.B. Tauris, 2014. – P. 80-97; Cucciolla R. The Crisis of Soviet Power in Central Asia: The – Uzbek Cotton Affair (1975-1991): Dissertation work for the degree of PhD in Political History. – Lucca, 2017. – 671 p.

“Paxta ishi” uydirmasi asosida “mashhur shaxslar”ga aylanganligi ko‘rsatib o‘tilgan. N. Norlingning “Afsona va haqiqat: sovet O‘zbekistonidagi siyosat” nomli dissertatsiya ishida O‘zbekistonda sovet hokimiyati o‘rnatilga dastlabki kunlardan boshlab, Ittifoq tarqab ketguniga qadar amalga oshirilgan siyosat, jumladan, Sh.R. Rashidov faoliyatining yakunida uyushtirilgan “Paxta ishi” kompaniyasi, kompaniyaning boshlanish omillari, mazmun mohiyati ochib berilgan. Italiyalik R. Kukkiolaning tadqiqot ishida 1975–1991-yillarda sovet hokimiyatining Markaziy Osiyodagi boshqaruv tizimi, inqirozi bilan bog‘liq masalalar, “paxta ishi” xususida, N. Niklas dissertatsiyasida O‘zbekistonda 1982–1991-yillarda “paxta ishi” qatag‘oni, Sh. Rashidov faoliyati bilan bog‘liq siyosiy jarayonlar xususida ma‘lumot berilgan.

Mavzu tarixshunosligining tahlili XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida yuz bergan “Paxta ishi” qatag‘on siyosati va uning salbiy oqibatlari mavzu maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirish muammolarini kompleks tadqiq etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan “Paxta ishi” qatag‘on siyosati va uning oqibatlarini Qashqadaryo viloyati misolida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistonda “Paxta ishi” qatag‘onining kelib chiqishi sabablari va uning tarixiy asoslarini ko‘rsatib berish;

Qashqadaryo viloyatida “paxta ishi” bilan bog‘liq tergov jarayonlarining boshlanishi hamda rahbar xodimlarning tergov qilinishi jarayonlarini asoslab berish;

Qishloq xo‘jaligi xodimlarining “paxta ishi”ga tortilishi va ularga nisbatan amalga oshirilgan zo‘ravonliklarini ochib berish;

Paxta yakkahokimligi siyosatining ta‘lim sohasiga ta‘siri, qatag‘onga uchragan ta‘lim tizimi xodimlari holatini tahlil qilish;

Ayollarning “paxta ishi” yuzasidan qatag‘onga uchrashi sabablari va oqibatlarini asoslash;

“Paxta ishi” qatag‘onining viloyat aholisi turmush darajasiga ta‘siri uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish;

“Paxta ishi” kompaniyasida nohaq qamalgan qashqadaryolik qatag‘on qurbonlarining oqlanishi holatlari haqida ma‘lumot berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekistonda “Paxta ishi” qatag‘on siyosatining amalga oshirilishi, uning fojiali oqibatlari, qatag‘on qilingan kishilarning taqdiri hamda ularni reabilitatsiya qilish jarayonlarini Qashqadaryo viloyati misolida o‘rganish tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmeti** “Paxta ishi” qatag‘onining O‘zbekistonda xususan, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga salbiy ta’siri va rehabilitatsiya jarayonlarini ko‘rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida muammoga tarixiylik va haqqoniylik tamoyillari asosida yondashilib, belgilangan vazifalarni to‘g‘ri hal etish maqsadida xolislik, tarixiy-qiyosiy, davriy izchillik, muammoviy-xronologik, statistik, og‘zaki tarix kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

“Paxta ishi” qatag‘oni bo‘yicha Qashqadaryo viloyati eng ko‘p jabr chekkan hududlardan biri bo‘lganligi, rahbar xodimlarni tergovga tortish jarayonida ayblanuvchilarga nisbatan g‘ayriqonuniy usullarning qo‘llanganligi hamda g‘ayritabiiy tergov vositalari bilan (tan jarohati yetkazish, ayoli, qizlari, yaqinlari orqali qo‘rqitish, bir necha kun suvsiz va och qoldirish, yashash og‘ir bo‘lgan xona va yerto‘lalarda saqlash, yolg‘on ko‘rsatma berishga majburlash va hokazo) majburiy ravishda ayblash holatlarining bo‘lganligi dalillar asosida dalillangan;

Qatag‘on siyosatini amalga tatbiq etish jarayonida viloyat qishloq xo‘jaligi sohasi xodimlariga asosiy e‘tibor qaratilganligi, kolxoz, sovxoz rahbarlaridan tortib, mazkur jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkilotlar rahbarlari hatto oddiy ishchilarning soxta ayblovlar asosida jinoiy javobgarlikka tortilganligi, mol-mulklarining musodara etilganligi, “Paxta ishi” qatag‘oni doirasida nohaq, jabrlangan kishilar haqidagi ma‘lumotlar: og‘zaki tarix uslublari asosida suhbatlar amalga oshirilganligi, suratlar, video yoki audio yozuvlarning to‘planganligi, ularning keying taqdirlari, davrning fojiali asoratlari haqidagi ma‘lumotlar ilmiy jihatdan isbotlangan;

Paxta yakkahokimligi siyosatining ta‘lim tizimiga ta’siri, o‘rta maxsus, oliy o‘quv yurtlari hattoki maktab o‘quvchilarining paxta-yig‘im terim ishlariga jalb qilinganligi, turli sohalarda mehnat qilayotgan ayollarning, ta‘lim sohasidagi ziyolilarning “paxta ishi” doirasida tergov jarayonlariga jalb etilganligi, ularning jinoiy javobgarlikka tortilishi holatlari aniq misollar asosida tavsiflangan;

XX asrning 80-yillari oxirida sovet hokimiyatining O‘zbekistonda olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati oqibatlari, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” qatag‘onining Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi jarayonlari, uning oqibatlari, O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining “paxta ishi” bo‘yicha komissiyasining faoliyat yuritishi bilan nohaq ayblangan qashqadaryolik qatag‘on qurbonlarini rehabilitatsiya qilinishi va ularning keyingi taqdirlari haqidagi ma‘lumotlar aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: sovet hokimiyatining “Paxta ishi” qatag‘on siyosatining Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi jarayoniga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekistonning eng yangi tarixini yoritishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jihatlari aniqlangan; “Paxta ishi” qatag‘oni siyosati masalasini o‘rganish bo‘yicha nazariy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda amalga oshirilgan “Paxta ishi” qatag‘oni siyosatining Qashqadaryo viloyati misolida mazkur siyosiy kompaniyaning fojiali salbiy oqibatlarini o‘rganishga daxldor keng ko‘lamdagi arxiv materiallari, og‘zaki tarix

ma'lumotlari tahlil qilingan va tadqiq etilayotgan mavzuga doir bir qator ma'lumotlar amaliy jihatdan muomilaga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi:** Dissertatsiyada tarix fanida tan olingan zamonaviy yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, ko'p turdagi arxiv hujjatlari, davriy matbuot va og'zaki tarix materiallari, tarixiy adabiyotlardan foydalanilganligi, keltirilgan materiallar birlamchi manbalarga asoslanganligi, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, O'zbekistonda, xususan, Qashqadaryo viloyatida o'tkazilgan "paxta ishi" qatag'oni siyosati va uning salbiy oqibatlari mavzusini tarixiylik, xolislik, tarixiy tizimlilik tamoyillari asosida yoritilishi mazkur muammoga oid ilmiy-nazariy bilimlarni kengaytirish va yangi ma'lumotlarni amaliyotga joriy etish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** O'zbekistonda jumladan Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan "paxta ishi" qatag'oniga doir bilimlarni yanada kengaytirish, O'zbekiston tarixining tegishli bo'limlarini yozishda, "Qashqadaryo tarixi" fanidan o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratish hamda yangi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajarishdan iboratdir. Shuningdek, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, QarDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari ekspozitsiyalarini tarixiy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

O'zbekistonda "Paxta ishi" qatag'oni siyosati va uning oqibatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) mavzusini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflar asosida:

"Paxta ishi" qatag'oni bo'yicha Qashqadaryo viloyati eng ko'p jabr chekkan hududlardan biri bo'lganligi, rahbar xodimlarni tergovga tortish jarayonida ayblanuvchilarga nisbatan g'ayriqonuniy usullarning qo'llanilganligi hamda g'ayritabiiy tergov vositalari bilan majburiy ravishda ayblash holatlarining sodir etilganligi haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ochiq dars ko'rsatuv" ssenariysini shakllantirish va ko'rsatuvni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 23-maydagi 06-48-994-son ma'lumotnomasi). Natijada SSSR Prokuraturasi tergov guruhining XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida "Paxta ishi" kompaniyasi davrida olib borgan noqonuniy faoliyati va uning fojeaviy oqibatlari haqida teletomoshabinlarga to'laroq ma'lumot olish imkonini berdi.

Qatag'on siyosatini amalga tatbiq etish jarayonida viloyat qishloq xo'jaligi sohasi xodimlariga asosiy e'tibor qaratilganligi, kolxoz, sovxoz rahbarlaridan tortib, mazkur jarayon bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkilotlar rahbarlari hatto oddiy ishchilarning soxta ayblovlar asosida jinoiy javobgarlikka tortilganligi,

mol-mulklarining musodara etilganligi bo'yicha og'zaki tarix uslublari asosida suhbatlar amalga oshirilganligi, suratlar, video yoki audio yozuvlarning to'planganligi, ularning keyingi taqdirlari, davrning fojiali asoratlari haqidagi ma'lumotlardan Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi eksponatlarini boyitishda xizmat qildi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2023-yil 1-iyundagi №144-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot natijalarning amaliyotga qo'llanilishi, jamoatchilik ongida "Paxta ishi" tufayli qatag'on qilinib, nohaq jabr chekkan insonlarning keyingi taqdiri, uning fojiali asoratlari haqidagi qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Paxta yakkahokimligi siyosatining ta'lim tizimiga ta'siri, o'rta maxsus, oliy o'quv yurtlari, hattoki maktab o'quvchilarining paxta-yig'im terim ishlariga jalb qilinganligi, ta'lim sohasidagi ziyolilarning va shuningdek, turli sohalarda mehnat qilayotgan ayollarning "paxta ishi" doirasida tergov jarayonlariga tortilganligi, ularning jinoiy javobgarlikka tortilishi holatlariga oid ekanligi dalillangan yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ochiq dars" ko'rsatuvi ssenariysini shakllantirish va ko'rsatuvni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 23-maydagi 06-48-994-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv faktik ma'lumotlarga boy bo'lib, teletomoshabinlarning viloyatning "Paxta ishi" qatag'oni bilan bog'liq tarixini chuqurroq tushunishlariga imkon bergan.

XX asrning 80-yillari oxirida sovet hokimiyatining O'zbekistonda olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati oqibatlari, "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" qatag'onining Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi jarayonlari uning oqibatlari, O'zbekiston SSR Oliy Kengashining "paxta ishi" bo'yicha komissiyasining faoliyat yuritishi bilan nohaq ayblangan qashqadaryolik qatag'on qurbonlarini reabilitatsiya qilinishi va ularning keyingi taqdirlari haqidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Mavzu" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 27-maydagi №06-28-671-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarga XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida "Paxta ishi" qatag'onining amalga oshirilishi jarayonlari uning salbiy oqibatlari va o'ziga xos jihatlari xususida kengroq ma'lumot olish imkonini yaratdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari jami 14 ta nashr etilgan ishlarda, jumladan, 4 ta OAK ro'yxatida qayd etilgan respublika, shuningdek, xorijiy jurnallarda 3 ta maqolada hamda 1 ta ilmiy jurnalda, 6 to'plam va konferensiya materiallarida o'z aksini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, ishning tadqiqot qismi 148 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratiga asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti bayon etiladi. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, uning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda “paxta ishi” qatag‘on siyosatining boshlanishi, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilish jarayonlari”** deb nomlangan. Mazkur bobning *birinchi paragrafida* “O‘zbekistonda “Paxta ishi” qatag‘oni kelib chiqishining tarixiy asoslari tahlil etilgan.

Ma‘lumki, ma‘muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati, o‘tgan tarixiy davrda o‘z ichki siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida zo‘ravonlik siyosatini amalga oshirib keldi. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati vatan tarixshunosligida istiqloq tufayligina o‘zining haqqoniy bahosini olishga musharraf bo‘lgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘onlik siyosatining oxirgi davri, O‘zbekistonda XX asrning 80-yillarida “Paxta ishi”, keyinroq “O‘zbeklar ishi” degan nom ostida tarixga kirdi. Mazkur davrda sovet davlati keskin iqtisodiy inqirozlar girdobida qolib, o‘z hukmronligining so‘nggi bosqichini boshidan kechirayotgan edi.

Sovet davlatidagi rejali iqtisodiyot hech qanday iqtisodiy qonuniyatlar va obyektiv sabablarni tan olmas edi. Reja qanday bo‘lmasin bajarilishi shart va zarur edi. Markaziy boshqaruv bir tomondan O‘zbekistonga bajarib bo‘lmaydigan rejani taqdim etar, ikkinchi tomondan o‘zbek paxtakorlarining og‘ir mehnatiga juda past narx to‘lanar edi. Mazkur holat O‘zbekistonda qo‘shib yozishni keltirib chiqardi. Rejani bajarmaslik partiyadan o‘chirilib, mansabdan ajralish yoki jinoiy javobgarlikka tortilishgacha borar edi.

1982-yil 10-noyabrda KPSS MK Bosh sekretari L.I. Brejnev vafot etdi<sup>21</sup>. Uning o‘rniga chiqqan mamlakatning yangi siyosiy arbobi Y. Andropov O‘zbekiston borasida keskin bayonotlar berdi. Uning O‘zbekistonga nisbatan ba‘zi harakatlari “paxta ish” kabi qatag‘onni boshlashga ishora qilgan. Sobiq KGB raisi Y. Andropov hamda 1959–1983-yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining Birinchi Kotibi bo‘lgan Sharof Rashidov o‘rtasida Afg‘oniston va tashqi siyosatning ba‘zi jabhalari (“Karib inqirozi”<sup>22</sup> masalasi)da eski nizo mavjud edi.

Y. Andropov 1983-yilning fevral oyida KPSS MK Siyosiy byurosi O‘zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko‘zbo‘yamachiklarni tekshirish yuzasidan maxsus qaror qabul qiladi – SSSR prokuraturasiga maxsus tergov kommissiyasini tuzishni topshiradi. SSSR Bosh prokurori P. Rekunkov bu ishga har qanday

<sup>21</sup> Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945–1983 йиллар). – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 136.

<sup>22</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbek-ishi-va-paxta-ishi-musibatining-ildizi-qaerda-edi>

noqonuniy usullardan tap tortmaydigan, keskin harakatlar qilishga moyil ikki xodimi – T. Gdlyan va N. Ivanovlar boshchiligida komissiya guruhini shakllantirib, ularga O‘zbekistonda tergov harakatlariga bevosita rahbarlik qilishni yuklaydi<sup>23</sup>. Tergov guruhidagilarning soni 200-300 nafar kishidan iborat bo‘lib, a‘zolari soni doimo o‘zgarib va ko‘payib turgan. Tergov guruhining vokolatlari keng va shuning uchun vazifalarni tartibsiz, nazoratsiz amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Xullas, sovet davlati hukmronligi davrida markazning paxta yetishtirish uchun qo‘ygan rejalarini bajarishning iloji bo‘lmadi. Yildan-yilga paxtaga bo‘lgan talab oshib bordi. Paxta planini bajarishning imkoni bo‘lmaganligi bois, yuqori tashkilotlarning buyrug‘i asosida qo‘shib yozishlar amalga oshirildi.

Birinchi bobning *ikkinchi paragrafida* Qashqadaryo viloyatida “Paxta ishi” bilan bog‘liq tergov jarayonlarining boshlanishi va rahbar xodimlarning jazoga tortilishi jarayonlari ochib beriladi. 1983-yildan boshlab “Paxta ishi” qatag‘oni bo‘yicha, eng avvalo, juda ko‘plab rahbar kadrlarni qatag‘on qilish boshlandi. Jumladan, 1982–1983-yillarda Qashqadaryo oblastida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan 36 nafar partiya va sovet davlat idoralarining rahbarlari o‘z vazifalaridan bo‘shatildi va partiya safidan chiqarilib, jinoiy javobgarlikka tortildi<sup>24</sup>. Ular orasida Qashqadaryo oblast ijroiya qo‘mitasining raisi Bekmurod Elboyev, Shahrisabz rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Ne‘mat Hikmatov, Nishon rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Jo‘ra Hushnazarov, Usmon Yusupov rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotiblari Nor Melayev, Qarol Mahmudov, Kitob rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Qahramon Mansurov, Chiroqchi rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Tolmas Tillayev, Ulyanov rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Abdi Umirov, Qarshi rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Ibrohim Ochilov va boshqalar bor edi<sup>25</sup>. Jumladan, bu davrda Qashqadaryo oblastida 6 ta tergov guruhi tashkil etildi. Mazkur tergov guruhlari tarkibida 25 nafar operativ xodim faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning to‘rttasi sotsialistik mulkni talon-taroj qilishga qarshi kurash bo‘limi (BXSS) xodimlari edi<sup>26</sup>.

1985-yilning uch oyida oblast rahbarining 3 muovini, 8 nafar bo‘lim mudiri, 26 nafar shahar va rayon partiya qo‘mitalarining kotiblari, oblast ijroiya qo‘mitasi raisi, uning 4 nafar o‘rinbosarlari, shahar va rayon ijroqo‘mlarining 12 nafar raisi, oblast miqyosidagi yirik tashkilotlarning 27 nafar rahbari, xo‘jaliklarning 99 nafar rais va direktorlari ishdan olindi<sup>27</sup>. 1983-1985 yillar kesimida tahlil qilinganda, Qashqadaryo oblastida faoliyat ko‘rsatgan rahbar kadrlarning qariyb 900 nafari lavozimidan bo‘shatildi<sup>28</sup>. Xususan, hibsga olingan kishilar orasida turli toifa vakillari – xalq xo‘jaligida faoliyatini boshlagan yosh kadrlardan tortib, tajribali, salohiyatli, mehnatkash va halol insonlar ham aksariyatni tashkil etar edi.

T. Gdlyan tergov guruhi a‘zolari, Qashqadaryoda “Paxta ishi” qatag‘onini amalga oshirishni bevosita Ro‘zmat G‘oyipov nomi bilan bog‘laydi. 1984-yilning

<sup>23</sup> Хлопковое дело // <https://ru.wikipedia.org/wiki>

<sup>24</sup> Қашқадарё вилояти ҳокимлиги архиви, 1-фонд, 28-рўйхат, 5-иш, 46-варақ.

<sup>25</sup> ҚВХА, 1-фонд, 28-рўйхат, 5-иш, 47-варақ.

<sup>26</sup> ЎзМА, Р-1710-фонд, 13-рўйхат, 1425-йиғма жилд, 17-варақ

<sup>27</sup> Ўз МА, Р-2772-фонд, 1-рўйхат, 1258-иш, 260–282-варақ.

<sup>28</sup> ҚВХА, 1-фонд, 32-рўйхат, 2-иш, 89-варақ.

fevral oyidan 1986-yil dekabriga qadar Qashqadaryo oblasti partiya komitetining birinchi kotibi lavozimida faoliyat yuritgan Normo‘min Turopov ustidan ham jinoiy ish qo‘zg‘atiladi. N. Turopov ham hibsga olingan ilk davrlardan oq “gdlyancha” so‘roq usullarida tergov qilinib, hibsga olinadi. Yakkabog‘ rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimida ishlagan Sami Boqiyev ham qatag‘onga uchragan rahbar kadrlardan hisoblanadi. U 1977–1983-yillarda Yakkabog‘ rayon partiya qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. 1985-yil 19-iyulda qamoqqa olinadi.

1985-yilning 28-sentabrida Qashqadaryo oblast prokurori, adliya katta maslahatchisi B.X. Kalonovning qarori bilan bo‘yicha jami 26 kishi ustidan jinoiy ish qo‘zg‘atiladi. Yakkabog‘ rayon partiya komitetining birinchi kotibi bo‘lgan S. Boqiyev paxta topshirish rejalarini davlat hisobiga oshirib yozish, ya‘ni ko‘zbo‘yamachilik yo‘li bilan bajarilishini ko‘rsatish hamda davlat va jamoat pul mablag‘larini talon-toroj qilishda ayblanadi<sup>29</sup>. S. Boqiyev 44 ming so‘m pora olganlikda ayblanadi. Uydagi bor narsalarini sotib, to‘lovni amalga oshirishga majbur bo‘ladi. Qashqadaryo oblast sudining 1989 yilning 11 avgustdagi hukmiga ko‘ra, 3 yil 7 oy 14 kun ozodlikdan mahrum qilinadi. Shuningdek, 3 yil muddatga mansabdorlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilingan, mol-mulkini musodara qilish belgilangan.

Xullas, “Paxta ishi”, keyinchalik “O‘zbeklar ishi” qatag‘oni bo‘yicha juda ko‘plab mahalliy rahbar kadrlar qatag‘on qilindi. Turli xildagi tazyiq usullari qo‘llanilib, jinoiy javobgarlikka tortish holatlari amalga oshirildi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Paxta ishi” qatag‘oni siyosatining Qashqadaryo viloyatida ommaviy tus olishi va uning salbiy oqibatlari**” deb nomlanadi va ushbu bobning *birinchi paragrafida* qishloq xo‘jaligi xodimlarining “paxta ishi” qatag‘oniga tortilishi va ularga nisbatan amalga oshirilgan zo‘ravonliklar masalasi tahlil etiladi.

XX asrning 80-yillariga kelib, paxta yakkahokimligi tufayli O‘zbekiston sovet davlatining paxta plantatsiyasiga aylantirildi. 1981-yilda respublika hududida 5022 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirilgan bo‘lsa, uning 574 ming 700 tonnasi Qashqadaryo oblasti hisobiga to‘g‘ri keldi<sup>30</sup>. Kolxoz va sovxozlar hisobidagi yerlar melorativ holatining yaxshilanmasligi, bahorgi va kuzgi shudgor usullaridan foydalanilmasligi, aksincha, paxtaning har yili doimiy ravishda bir joyda ekilishi va kimyoviy moddalarning keragidan ortiq qo‘llanishi oqibatida yerning eroziyaga uchrashi holati kuchaydi. Yuqoridan belgilanayotgan paxta rejalarini respublikada bajarishning imkoni bo‘lmaganligi sababli qo‘shib yozish holatlari ro‘y berdi. “Paxta ishi” qatag‘oni amalga oshirilib, mavjud holat yanada bo‘rttirib ko‘rsatildi.

1983-yil Qashqadaryo oblasti qishloq xo‘jaligi xodimlari uchun juda og‘ir keldi. Rasmiy ma‘lumotlarda<sup>31</sup> mazkur holat faqat ayrim mahalliy guruhlarning faoliyati bilan bog‘lanib, noto‘g‘ri baho berildi. Ko‘plab qishloq xo‘jaligi xodimlari – kolxoz raislari, sovxoz direktorlari, bosh buxgalterlar, agronomlar, ekonomistlar, kassirlar, brigadirlar, hattoki oddiy kolxozchilar, shuningdek paxta qabul qilish

<sup>29</sup> ҚВХА, 1-фонд, 32-рўйхат, 2-иш, 103–109-варақ.

<sup>30</sup> Ўз МА. Р-2772-фонд, 1-рўйхат, 1156-иш, 131-варақ.

<sup>31</sup> Қашқадарё ВДА, 1-фонд 28-рўйхат, 188-иш, 78-варақ.

punktlari xodimlari qatag'on girdobiga tushirildi. "Paxta ishi" qatag'oni bo'yicha oblast tarkibidagi kolxoz va sovxozlarning rahbarlaridan 47 nafari jinoiy javobgarlikka tortildi.

"Paxta ishi" qatag'onidan Shahrizabz rayon aholisi eng ko'p jabr ko'rgan hududlardan biri bo'ldi. Mazkur hududda Gdlyan boshchiligidagi tergovchilar juda katta ko'lamdagi "to'qima ishlar"dan foydalanib qatag'on siyosatini amalga oshirdi. Shahrizabz rayondagi "Pravda 25 yilligi" kolxozi raisi O'roq Qurbonov ustidan jinoyat ishi qo'zg'atildi<sup>32</sup>. Mazkur jinoyat ishiga sherik sifatida yana 12 nafar kishi ustidan ham ayblov e'lon qilinadi. Kolxoz 1932-yilda tashkil etilgan bo'lib, asosan paxtachilikka ixtisoslashgan edi<sup>33</sup>. Ularga, asosan, kolxoz rejasini bajarish uchun paxtani qo'shib yozish, soxta hujjat tuzish va kolxoz mablag'ini o'zlashtirganlik aybi qo'yiladi. Jarayon to'liq tekshirilmasdan soxta guvohlar orqali ularga qo'yilgan ayblovlar asosida turli xildagi jazo choralari qo'llanildi<sup>34</sup>.

1986-yilning mart oyidan 10-sentabrgacha Qashqadaryo viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov kollegiyasida Yakkabog' paxta tozalash zavodi direktori Murtoza Avlayev nomi bilan ataladigan ish ko'rib chiqiladi. Mazkur ro'yxatdagilar orasida Yakkabog' rayonidagi Engels nomli, "Lenin uchquni", Kalinin nomli, "Leninizm", "Qizil O'zbekiston", "Pravda", "Marksizm", "Sharq Yulduzi", Partiya XXIV syezdi", "Kommunizm", "Qizil Yulduz", Ulyanov nomli kolxozlarning rahbarlari va mansabdor shaxslari ham bor edi<sup>35</sup>.

Qashqadaryo viloyat jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivida №18-12513-son hujjatlar to'plami bo'lib, unda 1984-yilning dekabr oyida qishloq xo'jaligi soha mehnatkashlari va mansabdorlari ustidan jinoyat ishi qo'zg'atiladi va sud jarayonlari bo'lib o'tadi. Mazkur hujjatda Talimarjon rayon "2-Kommunist" sovxozi direktori Mars Sharopov asosiy aybdor sifatida e'tirof etilgan va 1983-yilning 1-fevralda qamoqqa olinadi. Ushbu ishda qishloq xo'jaligi hodimlaridan 41 kishi tergov jarayonlariga tortiladi<sup>36</sup>. Sudning hukmi bo'yicha Sharopov Mars 1981–1982-yillar davomida sovxoz direktori lavozimida ishlab, shu sovxozning bosh buxgalteri va boshqa mutaxassislari bilan to'lov vedomostlarida pul oluvchilarning imzolarini soxtalashtirish, paxtani qo'shib yozish jarayonlarining amalga oshirilishi, pul mablag'larining talon-toroj qilinishi kabi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblanadi. Xususan, M. Sharopov 15 yilga, Xidirov Begimqul 13 yil, A. To'liyev 12 yil, M. Do'stov 15 yil va boshqalar ham turli jazolarga mahkum etiladi<sup>37</sup>.

Xullas, "Paxta ishi" qatag'oni bo'yicha juda ko'plab qishloq xo'jaligi xodimlari qatag'onga uchradi. Mavjud hujjatlar to'liq, xolisona tekshirilmasdan

<sup>32</sup>Қашқадарё вилоят суди жиноят ишлари бўйича суд архиви, 183-фонд, 38-ийғма жилд, 118–124-варақлар. Қурбонov Ўроқ ва бошқалар бўйича жиноят иши бўйича ҳужжатлар тўплами.

<sup>33</sup> Қашқадарё ВДА, 1-фонд, 28-рўйхат, 247-иш, 116-варақ.

<sup>34</sup>Қашқадарё ВДА, 1-фонд 28-рўйхат, 180-иш, 55-варақ.

<sup>35</sup> Қашқадарё ВДА, 1-фонд 28-рўйхат, 180-иш, 173-варақ.

<sup>36</sup>Қашқадарё вилоят суди, жиноят ишлари бўйича судлов хайъати архиви, М. Шаропов ва бошқалар иши доирасида тўпланган ҳужжатлар тўплами, 183-фонд, 125-том, 63-67-варақ

<sup>37</sup> Mars Sharopov bilan suhbatimiz 2024-yilning 9-may kuni Nishon tumani Dasht qishlog'ida joylashgan xonadoni bo'lib o'tgan.

jinoiy ishlar qo'zg'atildi va sud hukmlari e'lon qilindi. Oqibatda ko'plab begunoh insonlarning sha'ni, ularning qadr-qimmatini toptaldi.

Ikkinchi bobning *ikkinchi paragrafida* paxta yakkahokimligi siyosatining ta'lim sohasiga ta'siri, qatag'onga uchragan ta'lim tizimi xodimlari haqida ma'lumot berilgan. XX asrning 80-yillarida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon madaniy-ma'naviy hayotga, jumladan ta'lim tizimiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur davrda yoshlar milliylik o'rniga kommunistik g'oya asosida tarbiyalanib, ular ongiga sinfiylik, partiyaviylik ruhiyati singdirib kelindi. Ta'lim muassasalarining faoliyati sovet hokimiyati va kommunistik partiyaning iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qildirildi.

“Paxta ishi” qatag'oni bo'yicha qishloq xo'jaligi xodimlari bilan birga, ziyoli qatlam vakillari bo'lgan o'qituvchilar ham nohaq qamalgan<sup>38</sup>. Sharqda ustoz, o'qituvchi, murabbiy so'zlari zamirida, o'z hayotini ta'lim-tarbiyaga baxshida etgan fidoyi insonlar tushunilgan. Gdlyanchi tergovchilar tomonidan ustozlarni qamash ishlari, ayniqsa, Shahrisabz hududida ko'plab sodir etilgan. Jumladan, Qayumov Abdug'appon Shahrisabz tumani sobiq “Pravda” kolxozining Muborak massividagi S. Ayniy nomidagi maktabida rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi lavozimida ishlab kelgan. Qashqadaryo viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha sudining 1985-yilning 28-may kuni bo'lib o'tgan sud jarayonida tergovchilarning ayblov xulosasiga ko'ra A. Qayumov soxta hujjatlar qilib, paxtani qo'shib yozgan deb topiladi<sup>39</sup>. Natijada sudning hukmi bilan 6 oy 7 kun ozodlikdan mahrum qilinadi<sup>40</sup>. Ko'rinib turganidek, maktab o'qituvchisi A. Qayumov asossiz ravishda qamoq jazosiga hukm qilinadi. Sud hujjatlarida xuddi shunday holat Shahrisabz tumanidagi sobiq Jdanov nomidagi maktabning bir guruh o'qituvchilari tomonidan ham sodir etilganligi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, maktab o'qituvchilaridan I. Ismoilov, H. Rahimov, Sh. Ahmedov, U. Sulstonovlar yuqoridagi holatni sodir etganlikda sud qilinadi. Xuddi shunday ayblov bilan Shahrisabz tumani S. Ayniy nomidagi maktabda direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan To'rayev Mavlon<sup>41</sup>, Bobur nomli maktab o'qituvchisi Ashurov To'xtamurod, Ulyanov rayonidagi 69-sonli maktab direktori Davronov Hazrat, “XX partiya syezdi” sovxozidagi Qoratepa qishlog'idagi maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan Jo'rayev Yusup va boshqa ko'plab ziyolilar “paxta ishi” bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortildi. Jumladan, Y. Jo'rayev 10 yil muddatga, D. Hazratov 5 yilga, T. Ashurovga esa 3 yilga ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llanildi.

“Paxta ishi” yuzasidan jabr ko'rgan ana shunday o'qituvchilardan yana biri Hazrat Davronov edi. Gdlyan boshliq tergovchilar uni 69-son maktabda direktor lavozimida ishlagan paytida, 1981-yilgi paxta yig'im-terim mavsumida shu yilning sentabr oyidan o'quvchilar nomiga soxta to'lov kvitansiyalarni rasmiylashtirganlikda aybdor deb topadi. Qashqadaryo viloyat jinoyat ishlari bo'yicha sudning hukmi

<sup>38</sup>“Махфий маҳкама ёхуд конунсиз қамалганлар қисмати”. Исматилло Йўлдошев. – Самарқанд: Турон, 2021. – 4 б. (Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори ўринбосари С. Ортиқованинг кириш сўзи).

<sup>39</sup>Қашқадарё вилояти суди жиноят ишлари бўйича судлов коллегиясининг архиви. Қурбонов Ўроқ ва бошқалар жиноят иши бўйича материаллар тўплами. Том-24. 1-варақ.

<sup>40</sup> О'sha joyda. 2-варақ.

<sup>41</sup>Қашқадарё вилояти суди Жиноят ишлари бўйича судлов коллегиясининг архиви. Қурбонов Ўроқ ва бошқалар жиноят иши бўйича материаллар тўплами. Том-24, 128-варақ.

bilan 5 yil ozodlikdan mahrum qilinadi, mol-mulkini davlat foydasiga tortib olish jazosi qo‘llaniladi.

Xullas, XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo oblasti dalalarida ekilgan paxtani yig‘ib-terish jarayonlariga maktab o‘quvchilari, talabalar doimiy ravishda jalb qilib kelindi. O‘quv dargohlarida o‘qitish jarayonlari to‘xtatildi. Paxta terish jarayonda o‘quvchi va talabalar bilan paxta dalalarida bo‘lgan ko‘plab ta‘lim sohasi xodimlari, o‘qituvchilar qo‘shib yozishda ishtirok etganlikda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida ayollarning “Paxta ishi” yuzasidan qatag‘onga uchrashi sabablari va oqibatlari ochib berildi. XX asrning 80-yillarda ham doimiy ravishda xotin-qizlar mehnatidan arzon kuch sifatida foydalanib kelindi. Mazkur davrda Qashqadaryo oblasti qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilayotgan xotin-qizlar salmog‘i 77,1 foizni tashkil etdi. Bu davrda xotin-qizlar o‘rtasida “15 ming kilogrammchi”, “10 tonna teruvchi”, “15 tonna teruvchi”, “rejani ortig‘i bilan bajaruvchi”, “zarbdor” va hokazo nomlar ostida targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi<sup>42</sup>.

O‘zbekistonda T. Gdlyan boshliq tergovchilar o‘zlarining manfur maqsadlari yo‘lida turli qarshiliklarga qaramay mutlaqo aybsiz bo‘lsa-da, hattoki ayollarga nisbatan ham hibsga olish, tergovga jarayonlariga tortish, qamoqda saqlash jazolarini qo‘lladilar. Ana shunday jabr ko‘rgan ayollardan biri – Karomat Qudratovadir. U 1983-yilning 31-oktabridan Qashqadaryo viloyati Shahrizabz tumani “Kommunizm” kolxozni raisi lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. Karomat Qudratova 1985-yilning kuzida Gdlyan rahbarligidagi tergovchilar tomonidan xo‘jalikning sobiq raisi Eshmatov Rahmon ishi doirasida tergovga tortiladi. Dastlab tergovchilar undan o‘zidan yuqori lavozimdagi va xo‘jalikda undan oldin faoliyat yuritgan rahbarlar ustidan ariza yozib berishini so‘raydi. Natija bo‘lmagach, unga nisbatan ham tuhmat va bo‘htonlar uyushtirilib, tergov harakatlari amalga oshiriladi. Karomat Qudratova 1986-yil 16-iyul kuni sud qilinadi. Dalillar orqali to‘liq aybi isbotlamasa-da, 8 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi<sup>43</sup>.

Nishon rayoni “Turkmaniston” sovxozni ishchisi T. Qurbonova, Bahoriston rayonidagi 22-sovxozda traktorchi Xalilulina Faniya Ziyayevna, Kitob tumani kuzgi-bahorgi kiyimlar uchun mo‘ljallangan tikuvchilik fabrikasida usta-tikuvchi vazifasida faoliyat yuritib kelgan Umriyayeva Go‘zal Ismoilovna, uning nomi bilan ochilgan jinoyat ishi hujjatlar to‘plamidan<sup>44</sup> ma‘lum bo‘ladiki, tikuvchilik kombinatiga qarashli Kitob tumani “K. Marks” nomli jamoa xo‘jaligi hududida joylashgan Paxta titish sexida brigada boshlig‘i Z. Aliqulova, xodimlar R. Xolova, K. Eshquvvatova, A. Sharipova va N. Rahmonovalar ham tergov jarayonlariga tortilib, sud qilingan. Ana shunday ayollardan yana biri Yakkabog‘ tumani paxta tozalash zavodida bosh buxgalter lavozimida faoliyat yuritgan Peripelesina Zoya

<sup>42</sup>Жўраева Н.Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат. (XX асрнинг 20–80 йиллари мисолида). Ўқув қўлланма. – Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2013. – Б. 209.

<sup>43</sup>Қашқадарё вилояти суди жиноят ишлари бўйича судлов хайъати архиви Раҳмон Эшматов ва бошқалар жиноят иши бўйича ҳужжатлар тўплами, 79-том, 78-варақ.

<sup>44</sup>Қашқадарё вилояти суди жиноят ишлари бўйича судлов хайъати архиви, 18-89185 рақамли Г. Умрияева ва бошқалар жиноят иши бўйича ҳужжатлар тўплами. 183 фонд, 3 рўйхат, 61–85 томлар, 44–55–195 варақлар.

Terentovna edi. U dastlab, Yakkabog' paxta zavodida oddiy ishchi, bo'lim boshlig'i, keyinchalik bosh buxgalter lavozimlarida faoliyat yuritgan. Z. Peripelesina o'z ishiga bo'lgan muhabbati va samarali mehnatlari evaziga "Mehnat shuhrati" va "Mehnat faxriysi" kabi unvon va medallar bilan taqdirlangan edi<sup>45</sup>. 1986-yilning 10-sentabr kuni Qashqadaryo viloyati sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov kollegiyasining hukmi bilan Z. Peripelesina jami 11 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi. Farzandlari borligi inobatga olinib, ushbu jazo turi 5 yil ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan va mol-mulki musodara etiladi. Shuningdek, "paxta ishi" bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan xotin-qizlardan Yakkabog' paxta tozalash zavodida bosh iqtisodchi Sayyora Karimova<sup>46</sup>, Tallimarjon rayoni "Kommunist" sovxozida brigadir lavozimida faoliyat yuritgan Saida Jumayeva, Nishon rayonida turli lavozimlarda faoliyat yuritgan Sofiya Mazitova, Mahkamtosh Jumayeva, Inoyat Ahmedova, Mahkam Bozorova, M. Qo'ldosheva, Ulashoy O'rinova, Muborak rayoni 5-a sovxoz bosh buxgalteri Safargul Ko'makova, Nishon rayoni S. Alende nomidagi sovxoz direktori To'lganoy Norbo'tayeva, Qamashi rayoni Farg'ona sovxozida brigadir bo'lib ishlagan Sanobar Yo'ldoshevalar shular jumlasidandir.

Xullas, XX asr 80-yillarida o'zbek xalqi ma'naviy hayotida asrlar davomida ayollarga nisbatan saqlab kelingan an'analar, qadriyatlar toptaldi. "Paxta ishi" qatag'oni davrida ayollar nohaq ayblandi va ularga nisbatan turli xildagi jazo choralari qo'llanildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Paxta ishi**" qatag'onining fojiali oqibatlari va qatag'on qilingan kishilarni reabilitatsiya qilish jarayonlari" deb nomlanadi va ushbu bobning *birinchi paragrafida* "Paxta ishi" qatag'onining Qashqadaryo viloyati aholisi turmush darajasiga ta'siri uning fojiali oqibatlari tahlil etilgan.

Sovet davlatining O'zbekistonda yuritgan paxta yakkahokimligi siyosati ayni XX asrning 80-yillariga kelib o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Bir tomondan xalqimiz paxta yetishtirishdek ulkan mashaqqatlarga duchor etilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan "paxta ishi"dek tubanlikka duchor etildi. Asrlar davomida suniy sug'orma dehqonchilikning turli yo'nalishlarida faoliyat yuritib kelgan, ulkan yerlarga bog'lar barpo etgan hamda chorvachilikda katta tajriba yaratgan xalqimiz uchun sovet davlatining strategik mahsuloti hisoblangan paxtaning haddan tashqari ekilishi juda ko'plab fojialar olib keldi.

O'zbekistondagi "paxta ishi" qatag'oni ayni avj olganda, u bilan birgalikda sovetlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy buhronlariga chora sifatida "qayta qurish" siyosati rahbariyat tomonidan amalga oshirishga harakat qilindi. Lekin bu kutilgan natijalarga olib kelmadi. Qolaversa, XX-asrning 80-yillaridagi tashqi siyosatdagi kuch ishlatish jarayonidagi xatoliklar ham, sovet tuzumining halokatidan dalolat bera boshladi. Ushbu jarayonni barcha milliy respublikalar hamda ular tarkibidagi oblastlar va rayonlarda ham kuzatish mumkin edi. Xususan, O'zbekiston SSRda ham aholining ijtimoiy vaziyat nihoyatda murakkablashib borayotgan, xalqlarning

<sup>45</sup>Қашқадарё вилояти суди жиноят ишлари бўйича судлов ҳайъати архиви, М.Авласев ва бошқалар жиноят иши бўйича ҳужжатлар тўплами, 183 фонд, 3 рўйхат, 173 том, 1-196 Ҳужжатлар.

<sup>46</sup>О'sha joyda.

Markaziy hokimiyat hamda hukmron partiya qabul qilayotgan qarorlarida koʻzda tutilgan aslida faqat balandparvoz shiorlar ortida berkingan “islohotlarga” ishonchi qolmagan edi. Ayniqsa, Oʻzbekistonning janubida joylashgan Qashqadaryo oblastida kechayotgan voqealar, “Paxta ishi” kompaniyasi negizida olib borilayotgan harakatlar bu oblast aholisining keskin noroziligini uygʻotishiga sabab boʻldi. Keng koʻlamli tergov ishlari uzoq vaqt mobaynida davom etayotgan, bu kompaniyaning oxiri koʻrinmas, tergovchilar “aybdor”larni hibsga olishda tinmay davom etar edi. Gdlyan va Ivanovlar tomonidan ochilgan “jinoiy ishlar” tufayli oblast, respublika sovet davlatida sharmanda qilindi “tiz choʻktirildi”. Bir tomondan qilmagan, bevosita manfaatdor boʻlmagan ishi uchun tuhmatlar bilan qamalgani, ikkinchi tomondan kishilarning qamoqxonalardagi ayanchli holati “paxta ishi” qatagʻonining naqadar xalqimizga salbiy asoratlar olib kelganligini koʻrishimiz mumkin.

Sovetlarning oxirgi qatagʻoni tufayli nafaqat tergov jarayonlariga tortilgan kishilarning, balki xalqimizning katta qismining ijtimoiy-psixologik holatida ham katta salbiy izlar qoldi. Oʻzbekistondagi “jinoyatchilik”, “mafiya”, “qoʻshib yozish” “katta miqdordagi oltinlar” kabi mavzulardagi tuhmat va boʻhtonlarga toʻla shov-shuvli maqolalar, teledasturlar, radioeshittirishlar nafaqat sobiq Ittifoqda, balki boshqa joylarda ham kishilar oldida oʻzbeklarning shaʼni, obroʻyiga putur yetkazgan edi. Mehnat faxriysi, uzoq yillar kolxozda injener boʻlib ishlagan Hasan Pardayev fikrlari bu borada mulohazaga chaqiradi: – “Oʻzbeklar sobiq Ittifoqning qaysi hududiga bormasin, odamlar ola qarash qilganligi, baʼzida ochiqcha, baʼzida yashirincha oʻzbeklar, Oʻzbekistondagi “paxta ishi” masalasida barcha oʻzbek millatidagi kishilarni ayblashar, bu esa azaldan gʻururli, mehmondoʻst, bagʻrikeng mehnatkash kishilarimizning nafsoniyatiga ogʻir botardi. Bunday munosabatlar keyinchalik ham bevosita va bilvosita davom etdi. Oʻzbeklarning milliy kamsitilish holatlari millatimiz insonlari ruhiyatiga ogʻir zarba boʻldi”<sup>47</sup>.

Demak, “paxta ishi” qatagʻoni tufayli oʻzbek xalqi juda moddiy va maʼnaviy zarar koʻrdi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 31-yanvar kunida ziyolilar bilan uchrashuvda uzoq yillik paxta yakkahokimligi va “paxta ishi” qatagʻonining keltirgan salbiy oqibatlar borasida taʼkidlab aytgan fikrlari ahamiyatlidir: – “Paxtaning kimga keragi bor, u kimga manfaat olib keldi? Millatimizga manfaat olib kelgani yoʻq. Balo, azob olib keldi. “Oʻzbek ishi”, boshqa ishlar. Mehnatimizga tuhmatlar boʻldi”<sup>48</sup>.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, 1991-yil 30-avgustda sobiq SSSR bosh prokurori Trubinning gdlyanchilarga qarshi qoʻzgʻatilgan jinoyat ishini harakatdan toʻxtatish haqidagi buyrugʻi tufayli ularning qilgan muttahamlari jazolanmay qoldi. Va bugungi kunga kelib ham ularning oʻzbek xalqiga nisbatan misli koʻrilmagan jinoyatlarini sobiq Ittifoq hududida xastpoʻshlaydigan, hatto oqlaydigan insonlar ham talaygina. Ularning qilmishlariga na tarix sahnidan ketgan sobiq ittifoq, na Rossiya, na Oʻzbekiston, na xalqaro huquq tashkilotlari adolatli baho bergan emas.

<sup>47</sup> Mehnat faxriyi: Hasan Pardayev bilan oʻtkazilgan suhbat jarayoni. 2024-yilning iyun oyi.

<sup>48</sup> <https://kun.uz/79757243?q=%2Fuz%2F79757243>

Uchinchi bobning *ikkinchi paragrafida* “Paxta ishi”da nohaq qamalgan qashqadaryoliklarning reabilitatsiya jarayonlariga e’tibor qaratilgan.

Mustabid sovet davlatining XX asrning 80-yillarida boshlangan “Paxta ishi” “O‘zbeklar ishi” nomini olgan mudhish qatag‘on siyosati natijasida o‘z erki, ozodligidan mahrum etilgan minglab shaxslar faoliyatini qaytadan o‘rganish, ochilgan jinoiy ishlarni qayta ko‘rib chiqish, aybsiz qamalganlarni oqlash – xalqimizning erki, ozodligi va shaxsiy huquq-erkinliklarini tiklash milliy davlatchiligimiz oldida tutgan, dolzarb masalalardan bir hisoblanadi. Sovet hukumatining (sharmandali) “paxta ishi” qatag‘oni tufayli xalqimiz boshidan og‘ir kunlarni o‘tkazdi – bir tomondan paxta dalalaridagi mashaqqatli mehnat, ikkinchi tomondan “O‘zbekistonda barcha poraxo‘r” deya minglab odamlarni qamab, ularning huquqlarini payhon qilinganligi kishilarni hayotga nisbatan tushkun holatga solib qo‘ydi.

“Paxta ishi” qatag‘oni tufayli nohaq qamalgan kishilarning huquqlarini tiklash, ochilgan jinoiy ishlarni qayta ko‘rib chiqish O‘zbekistonda yangi rahbar bo‘lib kelgan Islom Karimovning bevosita tashabbusi bilan amalga oshirila boshlandi. Zero, Qashqadaryo oblasti bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortigan ko‘plab insonlar aybi to‘liq isbotlanmasada, ular qamoq jazolarini o‘tayotgan edi. Islom Karimov 1986–1989-yillarda Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi sifatida faoliyat yuritgan davrlarda bu voqealardan yaxshi xabardor edi.

1989-yilning may oyiga qadar jinoiy javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi qayta ko‘rib chiqish uchun sudga oshirildi. 1984–1989-yillar davomida T. Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko‘proq “jinoiy” ish ko‘rib chiqilgan, “o‘z aybiga iqrorigi” asosida jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari turli darajadagi rahbar xodimlar, 10 nafari sotsialistik Mehnat Qahramonlari edi<sup>49</sup>.

1990-yilning aprel oyida “paxta ishi”dan jabr ko‘rgan minglab kishilarning “ishlari” ularning nomini oqlash, ularga noqonuniy qo‘yilgan ayblovlarni olib tashlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Prezidiumida ko‘rib chiqildi. Bu ishlarning qayta ko‘rilishi natijasida Moskvadan O‘zbekistonga yuborilgan T. Gdlyan va N. Ivanov rahbarligidagi tergovchilar guruhlar aybdor deb topgan 3500 dan ortiq insonning nomini oqlashga erishildi. Mustaqillik yillarida sovet davrida qatag‘onga uchragan nohaq ayblangan vatandoshlarimiz nomini tiklash va oqlash borasida keng ko‘lamdagi tadbirlar amalga oshirildi.

XX asrning 80-yillarida respublikaning barcha hududlarida amalga oshirilgan qatag‘on siyosati Qashqadaryo viloyati aholisi hayotida ham ro‘y berdi. Markazdan chaqirilgan rahbar kadrlar qilmishlari tufayli ko‘plab begunoh insonlar “paxta ishi” qatag‘on siyosatining qurboni bo‘ldilar.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan qatag‘onga uchragan kishilarning oilalari va ularning huquqlari tiklandi. Tergov jarayonlari qaytadan tashkil etilib ularning ishlari qaytadan o‘rganildi. Tergov guruhi a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ayblovlar nohaq va tuhmatlar asosida qo‘yilganligi isbotlandi. Nohaq qamalgan insonlarni ozod qilish jarayonlari amalga oshirildi. Ularning oila a‘zolari moddiy

---

<sup>49</sup> Бош саҳифа. // Совет Ўзбекистони, 1989 йил 27 декабрь.

shart-sharoitini yaxshilash choralari ko‘rildi. Ba‘zi rahbar lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan kishilar ish joylariga qayta tiklandi.

## XULOSA

O‘zbekistonda “Paxta ishi” qatag‘oni siyosati va uning oqibatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) mavzusidagi tadqiqotni o‘rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bizga ma‘lumki, ma‘muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati o‘z ichki siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida ma‘lum davrlarda zo‘ravonlik siyosatini amalga oshirib kelgan. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati vatan tarixshunosligida istiqlol tufayligina o‘zining haqqoniy bahosini oldi. XX asrning 80-yillariga kelib sovet davlatini inqiroziy holat qamrab oldi. Markaz, bir tomondan, O‘zbekistonga bajarib bo‘lmaydigan rejani taqdim etar, ikkinchi tomondan o‘zbek paxtakorlarining og‘ir mehnatiga juda past narx belgilar, bu ishi bilan O‘zbekistonda qo‘shib yozishni keltirib chiqardi.

2. Paxta yakkahokimligi siyosati qishloq xo‘jaligi sohasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida mavjud yerlarning asosiy qismiga paxta yetishtirildi. Yillar davomida paxta yetishtirish reja topshiriqlari ham ko‘payib bordi. Qashqadaryo viloyati sanoati, asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo‘naltirildi. Paxta yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida haddan tashqari zaharli kimyoviy moddalardan me‘yorsiz foydalanish insonlar sog‘ligiga zarar yetkazdi.

3. “Paxta ishi”, “qo‘shib yozishlar” masalasi O‘zKP MQning XVI plenumidan keyin Markazdan O‘zbekistonga yuzlab, ming nafarlab kadrlar yuborildi. Qisqa muddat ichida O‘zbekiston SSR prokuraturasining eng yuqori lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha Markazdan yuborilgan vakillar bilan almashtirildi. Paxta yetishtirish jarayoni bo‘yicha qo‘shib yozishlar, davlat va jamoat mablag‘larini suiste‘mol qilish va talon-taroj etish masalarida asosiy aybdor sifatida Qashqadaryo viloyat partiya qo‘mitasining birinchi kotibi R. G‘oyipov, N. Turopov, tuman partiya qo‘mitalarining birinchi kotiblari tergov jarayonlariga tortildi va turli xildagi jazo choralari amalga oshirildi.

4. “Paxta ishi” qatag‘oni bo‘yicha asosiy aybdorlar sifatida qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritib kelayotgan rahbar kadrlar, ya‘ni kolxoz, sovxoz rahbaridan tortib, brigadirlar, hatto oddiy kolxozchilar ham qatag‘on girdobiga tortildi. Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz tumani aholisi “paxta ishi” qatag‘oni bo‘yicha eng ko‘p jabr ko‘rgan hududlardan biri bo‘ldi. Mazkur hududdan g‘dlyanchi tergovchilar juda katta ko‘lamdagi qatag‘on siyosatini amalga oshirdi. Xuddi shunday holat Yakkabog‘, Qarshi, Chiroqchi, Nishon, Usmon Yusupov tumanlari kolxoz va sovxozlarida ham ro‘y berdi.

5. XX asrning 80-yillarida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon madaniy-ma‘naviy hayotga, jumladan ta‘lim tizimiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Ta‘lim muassasalari faoliyati sovet hokimiyati va kommunistik partiyaning iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qildirildi.

O'rta maxsus hunar-texnika bilim yurti faoliyati kengaytirib borildi. Ularda qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi kadrlar tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratildi.

6. "Paxta ishi" qatag'oni bo'yicha ziyoli qatlam vakillari bo'lgan o'qituvchilar ham jinoiy javobgarlikka tortildi. O'qituvchilarning qatag'on qilinish jarayoni Shahrisabz hududida ko'p kuzatildi. Shahrisabz tumani Jdanov nomidagi maktabning bir guruh o'qituvchilari paxtani qo'shib yozish jarayonlarida ishtirok etganlikda, davlat mulkini talon-taroj qilishda ayblandi. Tergov guruhi a'zolari tomonidan ularga nisbatan turli muddatlardagi qamoq jazolari qo'llanildi.

7. Sovet hokimiyati hukmronligi yillarida xotin-qizlarga bo'lgan munosabat masalasi kommunistik partiya manfaatlari nuqtai-nazaridan keskin hal qilish choralari ko'rildi. XX asrning 80-yillarida amalga oshirilgan qatag'on siyosatining tig'i asosan rahbar xodimlarga qaratilgan bo'lsa-da, bu jarayonga ko'plab xotin-qizlar ham tortildi. Qatag'on qilingan xotin-qizlar orasida Karomat Qudratova, Tamara Qurbonova, Faniya Xalilulina, Z. Aliqulova, R. Xolova, K. Eshquvvatova, A. Sharipova, N. Rahmonova kabi ko'plab ayollar jinoiy javobgarlikka tortildi.

8. 1985-yilning uch oyida viloyat rahbarining uch muovini, sakkiz nafar bo'lim mudiri, shahar va tuman partiya qo'mitalarining 26 nafar kotibi, viloyat ijroqo'mitasi raisi, uning 4 nafar o'rinbosari, mas'ul kotibi, shahar va tuman ijroqo'mlarining 12 nafar raisi, viloyat miqyosida yirik tashkilotlarning 27 nafar boshliqlari, kolxoz va sovxozlarning 99 nafar rahbarlari ishdan olindi. Ana shunday keskin vaziyatda I.A. Karimov Qashqadaryo viloyat partiya qo'mitasining birinchi kotibi vazifasiga saylandi.

9. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida 1987-yilning ikkinchi yarmidan boshlab jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aholining yashash sharoitlari yaxshilana boshlanadi. 198386 kvadrat metr turar-joy binolari, jami 24680 o'ringa ega bo'lgan zamonaviy maktablar, 2350 o'rinli bolalar bog'chalari qurildi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida tomorqalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. "Paxta ishi" bo'yicha nohaq jabr ko'rgan insonlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini tiklash ishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning ilmiy xulosalari asosida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1) XX asrning 80-yillarida mas'ul lavozimlarda ishlagan va o'z shaxsiy arxivlarida hujjatlarni saqlayotgan kishilar bilan jonli muloqotlar o'tkazish orqali mazkur davr ma'lumotlarini ilmiy doiraga kiritish;

2) Qashqadaryoda qatag'onga uchragan va jabr ko'rgan insonlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni to'plab, viloyat muzey eksponatlarini fotoalbomlar bilan jihozlash;

3) "Paxta ishi" qatag'oni, uning amalga oshirilishi jarayonlari va natijalari mavzusi bo'yicha yanada keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borish va ilmiy-amaliy koferensiyalar o'tkazish;

4) Har bir tumanda "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi filiallarini tashkil etish.

5) "Paxta ishi" qatag'on, uning amalga oshirilishi jarayonlari va natijalari mavzusi bo'yicha maxsus sahnalashtirilgan hujjatli film olish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ 03/27.02.2021.ТАР.70.05 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD ПРИ  
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**СУЯРОВ НУРБЕК РУСТАМОВИЧ**

**ПОЛИТИКА РЕПРЕССИЙ «ХЛОПКОВОГО ДЕЛА»  
В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯ  
(на примере Кашкадарьинской области)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА  
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2020.1.PhD/Tar777.**

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Тураева Матлуба Холикуловна**  
доктор исторических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Кобилев Эшболта Атамуротович**  
доктор исторических наук, профессор

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
доктор исторических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г. в « \_\_\_\_ » часов на заседании ученого совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 при Каршинском государственном университете. (Адрес: 180119, г.Карши, улица Кучабог, 17. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: [kasu\\_info@edu.uz](mailto:kasu_info@edu.uz)). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирован под № \_\_\_\_). (Адрес: 180119, г.Карши, улица Кучабог, 17. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года  
(Протокол реестра № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года).

**Б.Ж. Эшов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

**Н.Н. Раджабова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, к.и.н., доцент

**Ю.А. Эргашева**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время, когда процессы глобализации становятся все более углубленными, всестороннее изучение истории различных народов на международной арене, достоверная оценка историко-культурных процессов на основе научного анализа приобретают все большее значение не только в региональной, но и в мировой историографии. В частности, всестороннее изучение и объективная оценка истории XX века, богатой политическими депрессиями и войнами, а также репрессивной политики, применявшейся в этот период к различным народам, жившим при социалистическом режиме, а также ее пагубных последствий, является одной из приоритетных тем для изучения в мировой историографии.

В различных странах мира осуществляется множество исследовательских работ научными организациями по политическим конфликтам в XX веке, процессам политического, экономического, даже национального давления крупных государств на малые и слабые страны, исторической участи репрессированных народов. В частности, в России, Украине, Беларуси, Казахстане и других государствах репрессивная политика, проведенная советским государством в 80-е годы XX века, признается важной приоритетной темой, проводятся множество научных исследований по данному вопросу.

Целесообразно провести глубокое и достоверное исследование пройденного нашим народом пути исторического развития, чтобы понять суть проводимых в новом Узбекистане масштабных реформ. В частности, особое значение имеют глубокое изучение репрессивной политики, проведенной советской властью в 80-е годы XX века в Узбекистане, в том числе в Кашкадарьинской области, и ее научный анализ. Учитывая, что этот период был для Кашкадарьинского оазиса особенно сложным и трудным, одним из приоритетных вопросов является критическое изучение новых источников и произведений, созданных в советское время, восстановление исторической правды. Ведь, как отмечает Президент Республики Узбекистан Ш. Мирзиёев, «Ничто в великой истории не проходит бесследно. Оно сохраняется в крови и исторической памяти народов и проявляется в их практической деятельности. Вот почему он могущественен. Сохранение, изучение и передача исторического наследия из поколения в поколение – один из важнейших приоритетов политики нашего государства»<sup>1</sup>. По этой причине критическое изучение и анализ характера и последствий репрессивной политики, проведенной советской властью в республиканском масштабе в 80-е годы XX века на примере Кашкадарьинской области, и получение соответствующих выводов определяют актуальность данного исследования работа.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач намеченных в Распоряжениях Президента Республики

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 29.

Узбекистан № Р-5598 «О дополнительных мерах по более глубокому изучению наследия и увековечению памяти жертв репрессий» от 8 октября 2020 года, Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года<sup>2</sup>, а также Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №936 «О мерах по созданию государственного музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров Республики Узбекистан и музеев памяти жертв репрессий в структуре высших образовательных учреждений в регионах» от 22 ноября 2017 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №357 «О поддержке государственного музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров Республики Узбекистан и Музеев памяти жертв репрессий в структуре высших образовательных учреждений и общественного фонда «Шахидлар хотираси»» от 9 июня 2021 года, а также в других нормативно-правовых документах.

**Соответствие исследования по приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Исследование выполнено в соответствии с направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути» их выполнения.

#### **Степень изученности проблемы.**

Существующую литературу, посвященную истокам репрессивной политики, проводившейся в Узбекистане в 80-е годы XX века, и ее отрицательных последствий, можно разделить на три группы: 1) литература, созданная при советской власти; 2) публикации, составленные в годы независимости; 3) исследования, выполненные зарубежными авторами.

